



КАЗАХСТАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ  
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНУНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ АБАЯ



**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY  
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,  
MADANIYATI»  
MAVZUSIDAGI II XALQARO  
ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA**

**TOSHKENT - 2025**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY  
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,  
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY  
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

**TOSHKENT - 2025**



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rghanish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

**Taqrizchilar:**

**G.Asilova** – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

**G.Norimova** – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

**Tahrir hay'ati:**

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,

Y.Shirinova, M.Yo'ldosheva.

*Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.*

*Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.*



## TALABALAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKNI OLDINI OLISHNING INNOVATSION USULLARI

**Shamshimetov Timur Tashtemirovich**  
*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU tadqiqotchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada talabalar orasida huquqbazarlik holatlari, ularning sabablari va ularni oldini olishda innovatsion yondashuvlarning samarasi tahlil qilinadi. Talabalarning nazoratsiz qolishi ular tomonidan huquqbazarliklar sodir etilishi uchun imkon berish demakdir. Shu bois talabalar qonunbuzarligiga yo'l qo'ymaslik, huquqbazarlik harakatlarini oldin olish bo'yicha qator vazifalar bor. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishda yoshlarning g'ayriijtimoiy va noqonuniy xatti-harakatlariga yo'l ochuvchi pirovard sabablarni aniqlash, bu sabablar bilan kurashishusul va vositalarini aniqlash hamda tahlil qilish zarurati mavjud. Yoshlar, jumladan, yurtimiz oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan yigit-qizlarning huquqbazarlik holatlariga aralashib qolmasliklari, bunday ko'ngilsiz vaziyatlarni erta aniqlab, uni bartaraf etishning pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb vazifadir.

**Kalit so'zlar:** talabalar, huquqbazarlik, innovatsiya, gamifikatsiya, mentoring, raqamli ta'lim.

### **Kirish**

Globallashuv, urbanizatsiya va raqamli transformatsiyalar yoshlarning ijtimoiy hayotiga faol kirib kelmoqda. Shu bilan birga, talabalar o'rtasida sodir etilayotgan huquqbazarliklar sonining ortib borayotgani dolzarb muammoga aylanmoqda. Bu holat oliy ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarning mazmun va shakllarini yangilash, innovatsion yondashuvlarni joriy etishni talab qilmoqda. Ayniqsa, huquqbazarlik holatlari bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, talabalar orasida ma'muriy va jinoyat xarakteridagi huquqbazarliklar soni oshib bormoqda<sup>269</sup>. Shu sababli, an'anaviy tarbiyaviy metodlar o'rniغا innovatsion yondashuvlarni joriy qilish zaruriyati ortib bormoqda.

Huquqbazarliklarning sabablari va turlari

Talabalar orasida uchraydigan huquqbazarliklar turlicha bo'lib, ular quyidagi guruhlarga ajratiladi:

Ma'muriy huquqbazarliklar (ichki tartibni buzish, jamoat joyida odobsizlik);

Jinoyatlar (firibgarlik, o'g'rilik, zo'ravonlik);

Akademik intizomni buzish (ko'chirish, plagiat);

Internet va raqamli makonda sodir etiladigan huquqbazarliklar (kiberjinoyatlar, kibertahdid)<sup>270</sup>.

Bu holatlarning yuzaga kelishiga bir nechta omillar sabab bo'ladi: ijtimoiy nazoratning susayishi, ota-onan e'tiborining yetishmasligi, huquqiy bilimning

<sup>269</sup> Xudoyberdiyev R. Huquqbazarlik va uni oldini olish. – Toshkent: Adolat, 2020. – 98 b.

<sup>270</sup> Xudoyberdiyev R. Huquqbazarlik va uni oldini olish. – Toshkent: Adolat, 2020. – 98 b.



yeterli emasligi, psixologik muammolar, ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta'siri va iqtisodiy qiyinchiliklar<sup>271</sup>.

An'anaviy usullar va ularning kamchiliklari

Oliy ta'lif muassasalarida odatda tarbiyaviy suhbatlar, ma'ruzalar, ogohlantirishlar ko'rinishida olib boriladigan ishlar bilan cheklaniladi. Ushbu yondashuvlar ko'pincha talabalar e'tiborini tortmaydi, ularning faol ishtirokini ta'minlamaydi va natijadorlikni pasaytiradi<sup>272</sup>.

Mazkur maqolada aynan talabalar o'rtasida uchraydigan huquqbuzarlik holatlari, ularning sabablari va bu borada innovatsion profilaktika choralari tahlil qilinadi.

Talabalar orasida huquqbuzarliklar sabablari va turlari

Talabalar orasidagi huquqbuzarliklar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

Ma'muriy huquqbuzarliklar.

Jinoyat sodir etish (kiberjinoyatlar, firibgarlik).

Akademik tartibni buzish (ko'chirish, plagiat).

Etik qoidalarni buzish (bullying, tahdid).

Ularning asosiy sabablari esa:

Huquqiy bilim va madaniyatning pastligi.

Ijtimoiy muhitning salbiy ta'siri.

Shaxsiy muammolar va stress.

Iqtisodiy muammolar.

An'anaviy yondashuvlarning yeterli emasligi.

Ko'plab ta'lif muassasalarida hali ham og'zaki ogohlantirishlar, bирyoqlama ma'ruzalar orqali tarbiyaviy ishlar olib boriladi. Bu yondashuvlar zamonaviy yoshlarning e'tiborini tortmaydi, ular bilan real aloqa o'rnata olmaydi.

Innovatsion yondashuvlar

1.Raqamli ilovalar va sun'iy intellect

Huquqiy savodxonlikni oshirishda mobil ilovalar, masalan, "Huquqiy testlar" yoki "Men va qonun" kabi interaktiv vositalar orqali talabalar o'z bilimlarini tekshirishi mumkin. Sun'iy intellekt asosida individual huquqiy profil tuzish orqali talabalar xavf darajasini aniqlash imkonini beradi<sup>273</sup>.

2. Gamifikatsiya

Huquqiy ongi oshirishda o'yin usullari, masalan, viktorinalar, "huquqiy labirint"lar, simulyatsion sud mashg'ulotlari orqali ta'lif samaradorligi oshadi.

Ta'lif jarayonida o'yin elementlarini kiritish – masalan, "Huquqiy labirint" yoki sud protsessi simulyatsiyasi orqali talabalarning ishtiroki va qiziqishini

<sup>271</sup> Raximova Z. Internet xavfsizligi va yoshlar. // Yoshlar siyosati. – 2021. – №2. – B. 17–21.

<sup>272</sup> Tursunov I. Talabalar o'rtasida jinoyatchilikka olib keluvchi omillar. // Ijtimoiy fanlar. – 2022. – №4. – B. 35–39.

<sup>273</sup> Ochilov A. Talabalarda huquqiy madaniyatni shakllantirish. // Pedagogika. – 2022. – №3. – B. 21–24.



oshirish mumkin. Bu usul nafaqat bilim, balki faol ijtimoiy munosabatni ham shakllantiradi<sup>274</sup>.

### 3. Peer mentoring

Yoshlar o'z tengdoshlari orqali o'rganishni afzal ko'rishadi. Shu sababli, iqtidorli talabalar orasidan huquqiy savodxon yetakchilar tayyorlanadi. Ular boshqa talabalar bilan suhbatlar, treninglar o'tkazish orqali samarali ta'sir ko'rsatadi<sup>275</sup>.

### 4. Interaktiv seminarlar

Amaldagi huquq-tartibot organlari vakillari (prokuror, suda, IIB xodimi) ishtirokida mahorat darslari tashkil qilish talabalar uchun katta motivatsiya va tushuncha manbai bo'ladi. Real hayotiy misollar ularni chuqur o'ylashga undaydi<sup>276</sup>.

Suda, prokuror, ichki ishlar xodimlari ishtirokida jonli uchrashuvlar tashkil etish, real hayotiy misollarni ko'rib chiqish orqali ta'sir kuchayadi.

### 5. Real voqealarga asoslangan film va podkastlar

Yoshlar multimedia vositalari orqali ma'lumotni tez va samarali qabul qiladilar. Real huquqbazarlik holatlariga oid hujjatli filmlar, podkastlar va interaktiv videolar yordamida ularning ijtimoiy javobgarligi oshiriladi.

### 6. Media va kiberprofilaktika

YouTube, podkast va TikTok platformalari orqali ijtimoiy mas'uliyatli kontent tayyorlash va talabalar e'tiborini shu yo'l bilan jalg qilish mumkin. Shu bilan birga, kiberpatrullik guruhlari shakllantirilib, salbiy axborotlar va xatarli kontent aniqlanadi va ogohlantiruvlar yuboriladi<sup>277</sup>.

#### Monitoring va tahlil tizimi

Innovatsion yondashuvlar samaradorligini aniqlash uchun raqamli monitoring tizimlarini joriy etish lozim. Maxsus platformalar orqali talabalar ishtiroki, bilim saviyasi va xavf darajasi baholanadi. Statistik ma'lumotlar asosida tahliliy hisobotlar tayyorlanadi<sup>278</sup>.

Raqamli makonda yuz berayotgan jinoyatlarga qarshi kurashish uchun maxsus kiberpatrul guruhlarini shakllantirish, ular orqali tahdidli kontent va salbiy ta'sirlarni aniqlash, talabalarni xabardor qilish muhim.

#### Monitoring va tahlil tizimini joriy etish

Innovatsion yondashuvlar samaradorligini baholash uchun muntazam monitoring tizimi joriy qilinishi kerak. Statistik ma'lumotlar asosida qarorlar

<sup>274</sup> Fayzullayev M. Raqamli ta'lim texnologiyalari va sun'iy intellekt. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021. – 112 b.

<sup>275</sup> Saidov Sh. Gamifikatsiya va uning o'quv jarayonidagi roli. // Ta'lim va texnologiya. – 2023. – №1. – B. 10–13.

<sup>276</sup> Karimova N. Peer-mentoring: Yangi avlodga yangi yondashuv. // Zamonaviy ta'lim. – 2022. – №2. – B. 14–18.

<sup>277</sup> Karimova N. Peer-mentoring: Yangi avlodga yangi yondashuv. // Zamonaviy ta'lim. – 2022. – №2. – B. 14–18.

<sup>278</sup> Nurmatov A. Sud-huquq tizimi va yoshlar. – Samarqand: Ilm Ziyo, 2020. – 87 b.



qabul qilinadi, tahdid darajalari tahlil qilinadi va zaruriy choralar ishlab chiqiladi.

Talabalar o'rtasida huquqbazarliklarning oldini olish uzoq muddatli va uzluksiz jarayondir. Axborot asrida bu jarayonga an'anaviy targ'ibot usulidan foydalanib yondashilsa, natijakorlik kam bo'ladi. Shu bois talabalar bilan profilaktik ishlarni olib borishda yangi pedagogik yondashuvlar, innovatsion usullar g'oyat zarur. Huquqiy tarbiyaning yuksakligi jinoyatlardan xoli jamiyatni shakllantirishning asosidir.“Huquq” va “tarbiya” tushunchalari hosilasi «huquqiy tarbiya» tushunchasi nafaqat ijtimoiy hayotda, balki yuridik fanda ham o'zining o'ta dolzarbligi bilan alohida o'rinn tutadi. Sotsiolog va pedagoglar tarbiyanı quyidagi turlarga ajratadilar, ya'ni: shajaraviy tarbiya, ijtimoiy tarbiya, diniy tarbiya, oila tarbiyasi, harbiy tarbiya, huquqiy tarbiya va shu kabilar. Huquqshunos olimlar tomonidan tarbiya siyosiy tarbiya, madaniy tarbiya, ma'naviy tarbiya, ekologik tarbiya, estetik tarbiya va huquqiy tarbiya kabi turlarga ajratilishi qayd etilgan. Huquqiy tarbiyaning maqsadi shaxsda qonunni hurmat qilish, unga itoatkorlik va rioya etish fazilatlarini shakllantirish, uning “huquqiy immunitet”ini shakllantirishdan iborat. Shu jihatdan ham huquqiy tarbiya masalasi yuridik fanda ham jamiyat farovonligining kafolati sifatida tadqiq etib kelinadi.Oliy o'quv yurti talabalari orasida huquqiy tarbiyani amalga oshirishda, ular tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lganhuquqbazarliklarning oldini olishda an'anaviy va innovatsion pedagogik yondashuvlarga tayaniladi. Chunki Talabalar yoshlarning intellektual jihatdan yuqori qatlami hisoblanadi. Intellektual yetuklik ma'lum normalar va huquqiy bilimlarni anglash, shuningdek,qonunlarga amal qilish bo'yicha mas'uliyatli bo'lishda ham birlamchi unsurdir. Sxematik ravishda talabalar o'rtasidagi subyekt muloqotining to'rtta asosiy turi mavjud<sup>279</sup>: pragmatistlar, ziyolilar, tafakkur qiluvchilar va taqlidchilar. Biz har bir turni intellektual rivojlanishga tayyorlik pozitsiyasidan kelib chiqib qisqacha tavsiflaymiz. Intellektual va ijodiy tipdag'i talabalar o'zlarining intellektual salohiyatini rivojlantirishga qat'iy qaror qilishadi. Universitetda o'qishning yetakchi maqsadi intellektual va ijodiy o'zini o'zi anglash: intellektual yutuqlar va g'alabalar. Ular fundamental bilimlarni qabul qiladilar, voqealarning mazmuni va mohiyatiga kira oladilar va olimlar bilan hamkorlikka asoslangan haqiqiy ilmiy izlanishlarga kirishadilar. Ushbu turdag'i talabalar mustaqil fikrlash, muammolarni ko'rish va ularni hal qilishning ilmiy asoslangan usullarini topish qobiliyati bilan ajralib turadi. Ular tomonidan asoslantirilgan ilmiy-tadqiqot faoliyati, ishtirok manfaatdor: uning shaxsiy ahamiyatini, qiziquvchanlik va amaliy va ilmiy vazifalarni rivojlantirishga munosib hissa istagi tushunish. Odatda, bu guruhg'a kiruvchi talabalar orasida huquqbazarlar deyarli uchramaydi. Profilaktik tadbirlarni olib borishda ko'pincha shunday talabalar bilan hamkorlikda ishlash zarurdir.

<sup>279</sup> Guerrero M. Managing conflict appropriately and effectively: An application of the competence model to Rahim's organizational conflict styles. International Journal of Conflict Management, 11 (3), 2000. – P. 200–226.



Pragmatik tipdagi talabalar universitetni keyingi kasbiy faoliyat va ijtimoiy rivojlanish uchun yangi resurslarni olish vositasi deb bilishadi. Pragmatistlar o'zlarining hayotiy kuchlarini natijaga yaqinlashtiradigan narsaga sarflashga tayyor. Ular amaliy bilimlarga ustuvor ahamiyat berishadi, shunda u haqiqiy aniq natija beradi. Pragmatistlar intellektual faoliyatining kuchi muayyan muammolarni hal qilish uchun resurslarni topish qobiliyatidir. Pragmatistlar o'zlarining professional istiqbollarini ko'rishlari va buning uchun ishslashlari mumkin. Tadqiqot faoliyatida pragmatistlar, shu jumladan uchun sabab muvaffaqiyat, o'z-o'zini anglash va professional o'z-o'zini rivojlantirish uchun ehtiyoj bo'lishi mumkin. Pragmatist talabalar bilan ishslashda asosiy vosita rag'batdir. Odatda, pragmatistlarning jinoyatga moyilligi past bo'ladi. Ammo ular yutqazishni qabul qila olmasliklari, birinchi bo'lish istagi tufayli ko'pincha mayda bezorilik, iqtisodiy tipdagi ayrim qonunbuzarliklarga yo'l qo'yishlari mumkin<sup>280</sup>.

Tafakkur tipidagi talabalar bilish jarayoniga ijobiy moslashadi. Ular aqliy faoliyatning aniq refleksiv yo'nalishiga ega. Tafakkur qiluvchilarni o'quv jarayoniga kiritish o'z-o'zini bilishni rivojlantirish bilan birga keladi. Tafakkurchilar ma'lumotni shaxsiy ma'nolar orqali uzatishga qodir. Ular muhokamaga, muloqotga tayyor. Shu bilan birga, pragmatizmdan mahrum bo'lgan tafakkur haqiqiy muvaffaqiyatga erishishga to'sqinlik qiladi. Shu bois ayni tipdagi talabalarni oson manipulyatsiya qilish mumkin. Ular bilan ishslashda indivisual yondashuv zarur.

Taqlid tipidagi talabalar bilish jarayoniga qaraganda ko'proq diplom olishga e'tibor berishadi. O'quv jarayoniga qiziqish sust. Ular fikrlash qobiliyatlarini o'rganish bilan bog'liq bo'lмаган faoliyat sohalariga yo'naltiradilar. Ta'lim faoliyatida ular turli xil kommunikativ usullardan foydalangan holda o'quv jarayoniga taqlid qilish qobiliyatini namoyish yetadilar. Ushbu tur talabalarning intellektual salohiyatini oshirish uchun o'quv jarayonini qo'llab-quvvatlashning gumanistik yo'naltirilgan shakllari emas, balki o'qitishning taqlid va rasmiyatchilik darajasini pasaytirishdan iborat tashkiliy shakllar zarurligini aniq ko'rsatib turibdi. Profilaktik jarayonda biz ayni tipdagi talabalarga ko'proq e'tibor qaratishimiz kerak. To'rt turdag'i talabalar talabalar auditoriyasida to'planishlari aniq. OTM maksimal darajada talabalarning individual fikrlash, mustaqil muhokama qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga bor rezervlarini ishga solishi kerak. Chunki ijodiy fikrlashsiz innovatsion tafakkurda siljish ro'y bermaydi. Tarbiya jarayoni ta'limga nisbatan murakkab kechadi. Tarbiyada kerakli natijaga tezda erishib bo'lmaydi. Buning uchun vaqt va bir qancha mutaxassislarning yetaricha malakali metodlari kerak bo'ladi. Ta'lim va tarbiyaning ta'lim jarayonida uyg'unlashuvi uchun bilim dinamikasiga dialektik yondashuv talab etiladi. Bilimlarni o'stirish ularni qo'shish degani emas. O'stirish bu bilimlarni rivojlantirish, yangi bilim o'zlashtirilganda rivojlanishning yangi bosqichiga o'tishini ta'minlanishiga aytildi. Bu sharoitda esa talabalarning

<sup>280</sup> Califano J. The student revolution: A global confrontation. – Toronto, Norton, 1970.



xavfsizligini ta'minlash, ular orasida noxush vaziyatlarni oldini olishga qaratilgan ishlarni tizimli yo'lga qo'yish, jamoat xavfsizligini ta'minlash birlamchi vazifaga aylanadi.

Profilaktik tadbirlarga oid xulosalarini tahlil qilsak, OTMlarda talabalarni jinoyat k o'chasiga yetaklamaydigan, balki yoshlar uchun o'zini yaxshi his qiladigan va qiziqadigan xavfsiz joyni va sharoitlarni yaratish zarurligini anglashiladi. Huquqbazarliklarning oldini olishda eng samarali shakli turli yoshdag'i, ayniqsa, o'smirlarning manfaatlarini hisobga oladigan auditoriyadan tashqari ishlarning aniq

### **Xulosa**

Talabalar orasidagi huquqbazarliklarning oldini olishda innovatsion metodlardan foydalanish – bu zamon talabi. Raqamli texnologiyalar, psixologik yondashuv va tengdoshlar orqali o'qitish kabi metodlar huquqiy savodxonlikni oshirishga, profilaktika ishlarining sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Innovatsion yondashuvlar – talabalar orasidagi huquqbazarliklarning oldini olishda samarali va barqaror mexanizmdir. Yangi texnologiyalar, ijtimoiy psixologiya va ilg'or ta'lim metodlarini uyg'unlashtirgan holda olib borilgan ishlar huquqbazarliklar sonini kamaytiradi, huquqiy ongni oshiradi.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar**

1. Xudoyberdiyev R. Huquqbazarlik va uni oldini olish. – Toshkent: Adolat, 2020. – 98 b.
2. Raximova Z. Internet xavfsizligi va yoshlar. // Yoshlar siyosati. – 2021. – №2. – B. 17–21.
3. Tursunov I. Talabalar o'rtasida jinoyatchilikka olib keluvchi omillar. // Ijtimoiy fanlar. – 2022. – №4. – B. 35–39.
4. Ochilov A. Talabalarda huquqiy madaniyatni shakllantirish. // Pedagogika. – 2022. – №3. – B. 21–24.
5. Fayzullayev M. Raqamli ta'lim texnologiyalari va sun'iy intellekt. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021. – 112 b.
6. Saidov Sh. Gamifikatsiya va uning o'quv jarayonidagi roli. // Ta'lim va texnologiya. – 2023. – №1. – B. 10–13.
7. Karimova N. Peer-mentoring: Yangi avlodga yangi yondashuv. // Zamонави та'лим. – 2022. – №2. – B. 14–18.
8. Nurmatov A. Sud-huquq tizimi va yoshlar. – Samarqand: Ilm Ziyo, 2020. – 87 b.
9. Khudayberganova M. Kiberjinoyatchilik va yoshlar. // Yoshlar siyosati. – 2023. – №2. – B. 30–33.
10. [www.edu.uz](http://www.edu.uz) – O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining rasmiy sayti.



Gulnoza Juraeva Axmatovna. O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTIDA YANGILANISH EHTIYOJI	977
HAYTALIYEVA NIGORA. 90-YILLAR O'ZBEK SHE'RIYATINING BADIY-ESTETIK XUSUSIYATLARI	985
Mo'minova Shohida Toshtemir qizi. ZAMONAVIY O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTIDA QAHRAMON OBRAZINING SHAKLLANISHI	990
Yulduz Mustafayeva Nortoji qizi. "SHAMOLNI TUTIB BO'LMAYDI" HIKOYASIDA QAHRAMONLAR RUHIYATI TASVIRIDA DETAL VA ISMLAR POETIKASI	995
Shamshimetov Timur Tashtemirovich. TALABALAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKNI OLDINI OLISHNING INNOVATSION USULLARI	1002
Nurmuradova Dilovar Baxodirovna. ABDURASHID NURMEROLOV ROMANLARIDA URUSHNING BADIY TALQINI VA INSONIY FOJALAR	1008

